

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



**BIOORGANIK KIMYO FANI  
MUAMMOLARI**

**X RESPUBLIKA YOSH KIMYOGARLAR  
KONFERENSIYASI  
MATERIALLARI**

**II QISM**

**25-26 noyabr  
2022-yil**



3. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy qilish Toshkent 2008, 84-88-b.
4. Sayidahmedova N. S., Abdurahmonov M., ToshDTU o'qituvchi Pedagogik innovasiya: asosiy tushunchalar mohiyati va mazmuni. Uzluksiz ta'lim -2010- №5-12-13-b.

**KIMYO TA'LIMINI O'QITILISHIDA PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**  
*CHDPU Kimyo fani o`qituvchisi A.Q.Azimova;*  
*CHDPU kiyo yo`nalishi 2-kurs talabasi Sh.Orifjonova*

XXI asr- kompyuter texnologiyalari asri deb e'tirof etilayapti.Xohlasmizmi yo'qmi, har bir qadamda internet va kompyuter singari zamonaviy texnologiyalarga ko'zimiz tushadi.Telefon, kompyuter kabi „Yordamchilar" dan doimo foydalanamiz.Ulardan unumli foydalanish yo'llarini izlab,hayotga tadbiq qilish asosiy maqsad sifatida keltirilmoqda.Shuningdek, maktabgacha ta'lim mussasalari, maktablar, hamda Oliy ta'lim dargohlarida ham kompyuter texnologiyalariga talab katta.Darslarda kompyuterdan to'g'ri va oqilona foydalanish bilimlarini o'rgatish hozirda Oliy ta'lim muassasalari rejasiga kiritilgan.Maktab darslarini hozirgi kunga mos ravishda o'tkazish, o'quvchilarga qiziq va puxta bilim berish, ularni vizual xotiralarini kengaytirish muhum ahamiyat kasb etadi.Har bir fan uchun kompyuterdan foydalanish, yangicha metodlardan foydalanish mumkin.Masalan, kimyo fani bo'yicha slaydlar qilish, xavfli reaksiyalarni videoroliklarini ko'rsatib o'quvchilarni darsga qiziqtirish mumkin.Har bir maktabda laboratoriya xonalari va moddalar yetarli deb bo'lmaydi, lekin kimyo fani o'qitiladi.O'quvchilar kimyo fani bo'yicha tasavvur va ma'lumotlarga ega bo'lishi uchun turli xil kompyuter dasturlaridan foydalanish mumkin.Laboratoriya mashg'ulotlarini virtual tarzda ko'rsatish, mavzuga oid testlar ishlash, slaydlar orqali qiziqarli ma'lumotlar berish o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham manfaatli bo'ladi deb, o'ylayman.

Kimyo fani uchun foydalanish mumkin bo'lgan dasturlardan bir nechtasini namuna sifatida keltirishimiz mumkin.

Misol uchun Avagadro,ChemWindow,SymApps kabi dasturlarni olsak, Avagadro dasturida moddalarning molekular tuzilishini ko'rish, bog' uzunliklarini hisoblash mumkin.Bunda bog' uzunliklarini kompyuterning o'zi hisoblab beradi.Modda molekulalari metal, metalmasligiga qarab rang orqali farqlanadi.O'quvchilarning vizual xotiralari yaxshi

rivojlanadi.ChamWindow dasturida ko'proq organik moddalarning strukturalarini chizish, moddalarning soni va massa ulushlarini hisoblash, reaksiyalarni virtual tarzda ko'rish imkonini yaratadi.Kompyuter va undagi dasturlar insonlar uchun juda ko'p imkoniyatlar eshigi bo'lib xizmat qilmoqda.Ulardan unumli foydalanish kerak.Kimyo fani maktablarda 7-sinfdan boshlab o'qitiladi, shu yoshdan o'quvchilarning aqliy salohiyatlari kimyo fanini qabul qilishi mumkin bo'lgan darajaga yetadi.Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borayotgan hozirgi kompyuter asri davrida umumiyl o'rta ta'larning biror o'quv fanini to'liq ravishda yoki uning qaysidir qismini axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT) dan foydalanib o'tsa qanday samara berishini, yoki AKTni qo'llashning pedagogik tamoyillarini,uning psixologik xususiyatlarini, uning bilish jarayoniga ta'sir qilish mexanizmi va omillarini, shuningdek, yana boshqa ko'p jihatlarini kompleks tadqiq qilish dolzarb bo'lib bormoqda. Bu esa ta'limg tizimida, xususan, o'quv jarayonlarini tashkil etish va sifatli ta'limg berish, o'quv-uslubiy ta'minotni rivojlantirish, ayniqsa o'quv mashg'ulotlarini o'tish va o'zlashtirish samaradorligini oshirish borasida yangicha mazmun va mohiyat shakllanishiga asos yaratmoqda.Hozirgi kunda umumiyl o'rta ta'limg maktablarida ta'limg tizimining mazmuni va sifati bizning jamiyatimizning dolzarb masalalari va ustuvor yo'naliшlaridan biri bo'lib, uni rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish usullari va tadbirlari izlanmoqda, shu bilan birga umumiyl o'rta ta'limg maktablarida ta'limg-tarbiya jarayonida yangi axborot kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish masalasi ommalashtirilmoxda.Biz buning dalilini amalda ko'rishimiz ham mumkin. Xususan viloyatlarimizning barcha hududidagi maktablarni kompyuter bilan ta'minlash, yoshlarga zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holatda dars o'tish va bu orqali fanni o'rganuvchi yoshlarni, o'quvchilarni aslida juda ham qiziqarli bo'lgan ammo o'rganuvchiga yetkazib bera olmayotgan fanlarning maqsadi, vazifalarini hamda ahamiyatini tushuntira olishimiz mumkin. Bu esa fanning ayniqsa bilimlar ko'لامи qamrovi keng bo'lgan kimyo fanining izlanishiga nisbatan qo'yilgan asosiy qadamlardan biri hisoblanadi. Zero, ayni vaqtda ta'limg tizimida o'quvchi hamda talabalarning intelektual salohiyatini oshirish asosiy maqsad qilib belgilangan.

## MUNDARIJA

БИООРГАНИК КИМЁ ФАНИНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА МУАММОЛАРИ Асқаров И.Р. – Ўзбекистон ТАБОБАТ Академияси раиси, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ихтирочи, кимё фанлари доктори, профессор, Мўминжонов М.М. - Ўзбекистон ТАБОБАТ Академияси раис ўринбосари, кимё фанлари доктори. Исаев Ю.Т. – Андижон давлат университети Кимё кафедраси доценти, кимё фанлари доктори.....	3
<i>HYPERICUM PERFORATUM LEDEB O'SIMLIGI KIMYOVİY TARKIBINI O'RGANISH S.R.Mamadjanova, A.M.Karimov .....</i>	5
<i>KUMUSH NANOZARRACHASI HOSIL QILISH VA BARQARORLASHTIRISH Lutpillayeva Ma'suda Xayrullo qizi, Hoshimov Farhod Fayzullayevich.....</i>	14
<i>BARQAROR NANOKUMUSH OLISH Lutpillayeva Ma'suda Xayrullo qizi, Hoshimov Farhod Fayzullayevich.....</i>	16
<i>GANODERMA LUCIDUM БАЗИДИАЛ ЗАМБУРУҒИДАН АЖРАТИБ ОЛИНГАН ПОЛИСАХАРИДНИНГ ИММУНОТРОП ФАОЛЛИГИНИ ЎРГАНИШ С.Б.Хайтметова, А.С.Тураев, Г.А.Халирова, Д.Г.Абдугафурова, Л.У.Махмудов, Д.А.Аманликова, Н.А.Тагайалиева .....</i>	17
<i>ПРИРОДНЫЙ КРАСИТЕЛЬ АМАРАНТ И СИНТЕТИЧЕСКИЙ ЕГО АНАЛОГ АЗОРУБИН С Э.Хайдаров.....</i>	19
<i>DAVRIY QONUN MAVZUSIDA NOANANAVIY TO`GARAK TASHKIL QILISH. Adasheva Saodat Muso qiz .....</i>	21
<i>KIMYO TA`LIMINI O`QITILISHIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH CHDPU Kimyo fani o`qituvchisi A.Q.Azimova; CHDPU kiyo yo`nalishi 2-kurs talabasi Sh.Orifjonova .....</i>	28
<i>BOMBYX MORI ХИТОЗАНИ АСОСИДА Н-СУКЦИНИЛ ХИТОЗАН СИНТЕЗИ ВА МИКРОБИОЛОГИК ХОССАЛАРИ Мамасолиев У.М., Воҳидова Н.Р., Карева Н.Д., Рашидова С.Ш. ....</i>	30